

**BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARINI XALQARO SAVDO
MUNOSABATLARIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH**

Xursanov Shamsiddin Allamurod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: shamsiddincouncil@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda davlatlar o'rtasida savdo munosabatlarini rivojlantirish eng muhim asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, dunyo siyosatining notinch ekanligi dunyo davlatlarining inqirozga yuz tutishini tezlashtirib yuborayotgandek tuyuladi. Ammo, har qanay holatda ham biz yodimizdan chiqarmasligimiz kerak bo'lgan bir muhim jihat shundan iboratki, savdo sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda tabiatni asrash va ekologiyaga ham alohida e'tibor berishdir. Xalqaro savdo faoliyatini barqaror rivojlanish tamoyillarining asosi bo'lgan atrof-muhitni himoya qilish bilan uyg'unlashtira olsak, biz davlatlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun qulay muhit yarata olgan bo'lar edik. Maqolada ayni shu jarayondagi muammolar va ularga takliflar hamda O'zbekistonning bu boradagi tajribasini xorijiy davlatlar bilan qiyosiy tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Barqaror rivojlanish, SDG, BMT, JST, TRIPS, Rio deklaratsiyasi.

**IMPLEMENTATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT PRINCIPLES
INTO INTERNATIONAL TRADE RELATIONS: CHALLENGES AND PROPOSALS**

Khursanov Shamsiddin Allamurod ugli

Master's student at Tashkent State University of Law

Email: shamsiddincouncil@gmail.com

Annotation. Today, the development of trade relations between countries remains one of the most important issues. The current instability of global politics appears to be accelerating crises in many nations. However, regardless of the situation, one critical point that must not be overlooked is that alongside trade development, equal attention must be paid to environmental protection and ecological balance. If we can align international trade activities with the protection of the environment—one of the core principles of sustainable development—we would create a foundation for the stable growth of national economies. This article analyzes the existing problems in this process, offers solutions, and presents a comparative legal analysis of Uzbekistan's experience with that of foreign countries.

Key words: Sustainable development, SDG, UNO, WTO, TRIPS, Rio declaration.

**ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ ПРИНЦИПОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И
ПРЕДЛОЖЕНИЯ****Хурсанов Шамсиддин Алламурод угли***Магистрант Ташкентского государственного юридического университета**Email: shamsiddincouncil@gmail.com*

Аннотация. *Сегодня развитие торговых отношений между государствами остаётся одной из самых актуальных проблем. Политическая нестабильность в мире, по-видимому, ускоряет наступление кризисов в различных странах. Однако, при любых обстоятельствах, мы не должны забывать об одном важном аспекте: наряду с развитием торговли необходимо уделять особое внимание охране природы и экологии. Если нам удастся гармонизировать международную торговую деятельность с защитой окружающей среды — основополагающим принципом устойчивого развития — мы сможем создать условия для стабильного роста национальных экономик. В статье рассматриваются проблемы данного процесса, предлагаются пути их решения, а также проводится сравнительно-правовой анализ опыта Узбекистана и зарубежных стран.*

Kirish. Barqaror rivojlanish bugungi kunda xalqaro munosabatlar va global iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ayniqsa, xalqaro savdo munosabatlari doirasida ekologik barqarorlik, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Savdo faqat iqtisodiy o'sishni emas, balki atrof-muhit va inson salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiluvchi kuch sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu bois, ushbu maqola xalqaro savdo doirasida barqaror rivojlanish tamoyillarining huquqiy implementatsiyasi, mavjud muammolarni tahlil qilish va istiqbolli takliflarni ishlab chiqishga harakat qilinadi.

Metodlar. Maqola IMRAD usuli asosida yozildi. Unda quyidagi ilmiy metodlardan foydalaniladi: tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, induktiv va deduktiv tahlil, keystadi, empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlar sharhi. Maqolada JST va BMT doirasidagi asosiy konvensiyalar, xalqaro amaliyot, O'zbekiston qonunchiligi va xorijiy davlatlar tajribasi asosida tahlil olib borildi.

Natijalar va tahlil: JST konvensiyalarining barqaror rivojlanishdagi roli. Jahon savdo tashkiloti (JST) xalqaro savdo munosabatlarning asosiy muvofiqlashtiruvchi organi bo'lib, uning konvensiyalari (GATT, GATS, TRIPS) xalqaro savdo qonunchiligining asosini tashkil etadi. GATT (1947)ning 20-moddasi ekologik sabablarga ko'ra savdoni cheklash imkonini beruvchi istisnolarni nazarda tutadi[1]. Bu

moddaga ko'ra, a'zo davlatlar "odam, hayvon yoki o'simlik hayotini himoya qilish uchun zarur bo'lgan choralar"ni qo'llashi mumkin.

Ushbu moddani mahalliy qonunchilikka implementatsiya qilish yoki xalqaro xususi munosabatlarni tartibga solishda qo'llash turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, bu kabi normalarning qabul qilinishi tadbirkorlar ya'ni xalqaro savdoda ishtirok etuvchi subyektlar uchun ortiqcha protsessual tartiblarning yuzaga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin. Shu sababli, bu kabi byurokratik to'siqlar paydo bo'lishining oldini olish choralari ham ko'rilishi zarur. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'irisida"gi Qonun²ining 4-moddasida asosiy prinsiplar keltirilgan bo'lib, ushbu prinsiplar qatoriga atrof-muhitni himoya qilishda taraflarning o'zaro javobgarligi prinsipini ham kiritish mumkin. Bu protsessual jihatdan yuridik shaxslar uchun muammo keltirib chiqarmaydi ammo, ulaer tarafidan tabiat uchun yetkazilgan zarar uchun javobgarlik keltirib chiqaradi. Shu yo'l orqali byurokratik to'siqlarning oldini olish mumkin bo'ladi.

GATS esa xizmatlar savdosida ekologik xizmatlar segmentini o'z ichiga olgan bo'lib, davlatlarga ekologik xizmatlarni tartibga solish imkonini beradi[2]. TRIPS bitimi esa atrof-muhitga doir texnologik innovatsiyalarni intellektual mulk orqali himoya qilishni rag'batlantiradi[3].

Shuningdek, JST doirasida 2001-yilda boshlangan Doha Raundida "savdo va atrof-muhit" aloqalariga doir muhokamalar olib borilgan[4]. JSTning Barqaror Rivojlanish Komissiyasi esa ekologik masalalarni ilgari surmoqda.

Stokgolm deklaratsiyasi va UNEP faoliyatining huquqiy tahlili. 1972-yilgi BMT Stokgolm deklaratsiyasi global ekologik siyosatning asosiy tamoyillarini belgilagan hujjat bo'lib, unda 26 ta prinsip orqali insoniyat va tabiat o'rtasidagi muvozanat ta'kidlangan[5]. Shu hujjat asosida BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tashkil etildi.

UNEP ekologik standartlar ishlab chiqish, davlatlararo kelishuvlarni targ'ib qilish va ekologik monitoring tizimini rivojlantirish bilan shug'ullanadi. UNEP tomonidan ishlab chiqilgan Milliy Barqaror Rivojlanish Strategiyalarini (NSDS) tayyorlash metodologiyasi ko'plab davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega[6].

UNEPning savdoga taalluqli faoliyatida quyidagilar alohida ajralib turadi:

- Yashil iqtisodiyotni ilgari surish (Green Economy Initiative);
- Global Environment Outlook (GEO) hisobotlari orqali savdo va ekologiya o'rtasidagi bog'liqlikni yoritish;
- Savdo-siyosiy vositalarning ekologik muvofiqligini baholash.

² O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'irisida"gi Qonun <https://lex.uz/ru/docs/-18942>

Parij Bitimi, Rio Konvensiyasi va Agenda 21. Rio-de-Janeyroda 1992-yilda qabul qilingan Rio deklaratsiyasi va unga ilova sifatida ishlab chiqilgan Agenda 21 hujjati barqaror rivojlanish tamoyillarini xalqaro siyosatga integratsiya qilishga xizmat qildi[7]. 27 tamoyildan iborat Rio Deklaratsiyasi xalqaro savdoni ekologik barqarorlikka moslashuvchan tarzda olib borishni tavsiya qiladi.

Agenda 21 esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhitni boshqarish, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamkorlikka oid amaliy choralarni belgilaydi. Savdo bo'yicha alohida bo'limda ishlab chiqarish va iste'mol madaniyati, texnologik o'zgarishlar va ekologik standartlarning muhimligi ta'kidlanadi[8].

2015-yil Parij bitimi esa harorat ko'rsatkichlarini saqlash, karbon chiqindilarini kamaytirish, va "nationally determined contributions" (NDCs) tizimini joriy etish orqali BRga erishishni ko'zlaydi. Xalqaro savdo siyosatining ushbu maqsadlarga xizmat qilishi zarur[9].

O'zbekiston qonunchiligi va JSTga integratsiya istiqbollari. O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish jarayonida savdo-siyosiy qonunchiligini moslashtirish bilan birga, BR tamoyillarini ham implementatsiya qilishi zarur. Quyidagi hujjatlar BR tamoyillarining huquqiy asosini shakllantiradi:

- O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni[10];

- O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun;

- O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston-2030" strategiyasi;

Shuningdek, Texnik tartibga solish to'g'risidagi qonunchilik JST talablari asosida ekologik standartlarni integratsiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Korporativ javobgarlik va O'zbekiston tajribasi. Korporatsiyalar barqaror rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ulardan atrof-muhit va ijtimoiy masalalarda javobgarlik talab qilinmoqda. Xalqaro miqyosda, ayniqsa Yevropa Ittifoqida, "Corporate Sustainability Due Diligence" kabi qonunlar korporatsiyalarning ekologik va inson huquqlariga hurmat asosida harakat qilishini ta'minlaydi[11].

O'zbekistonda esa korporativ barqarorlik instituti rivojlanish bosqichida. Korxonalarning atrof-muhit bo'yicha hisobot berish majburiyati, ESG (Environmental, Social, Governance) indikatorlarining tatbiqi, jamoatchilik monitoringi zaif rivojlangan.

Takliflar:

- ESG hisoboti yuritish majburiyatini yirik kompaniyalar uchun joriy qilish;
- Ekologik soliq va kompensatsiyalar tizimini joriy etish;
- Barqaror rivojlanish bo'yicha mustaqil tartibga solish instituti (regulyator) tashkil etish (masalan, Ekologik Ombudsman);
- Nodavlat tashkilotlar ishtirokini kuchaytirish.

Qiyosiy-huquqiy tahlil: AQSh, YeI va Xitoy tajribasi. AQShda “National Environmental Policy Act” (NEPA) ekologik baholashni majburiy etadi va savdo bitimlarida ham ekologik baholashlar talab etiladi[12].

- YeIida “Green Deal” siyosati savdoni karbon neytral tarzda amalga oshirishga qaratilgan. 2023-yildan boshlab “Carbon Border Adjustment Mechanism” (CBAM) joriy qilinadi[13].

- Xitoyda “Eco-civilization” konsepsiyasi va barqaror rivojlanishga oid besh yillik rejalarda savdo va ekologiyani uyq’unligi ko’zda tutilgan[14].

Bu tajribalar O’zbekiston uchun quyidagi jihatlarida foydali bo’lishi mumkin:

- Integratsiyalashgan ekologik baholash tizimi yaratish;
- Savdo bo’yicha bitimlarda atrof-muhitga ta’sir tahlilini majburiylashtirish;
- Karbon kvotalar va yashil sertifikat tizimlarini joriy qilish.

Barqaror rivojlanish tamoyillarini xalqaro savdo siyosatiga to’laonli integratsiya qilish uchun quyidagi institutsional islohotlar taklif qilinadi:

- Xalqaro savdo bitimlariga ekologik majburiyatlarni kiritish;
- JST bilan muzokaralarda “environmental safeguards” ni muhokama qilish va mexanizmini ishlab chiqish;
- O’zbekiston savdo strategiyasiga barqaror rivojlanish indikatorlarini qo’shish.

Xulosa. Xalqaro savdo barqaror rivojlanishga qarshi emas, balki u bilan uyq’unlashgan tarzda yuritilishi zarur. JST, BMT hujjatlari va xorijiy tajriba O’zbekiston uchun huquqiy islohotlar yo’l xaritasi bo’lib xizmat qiladi. Korporativ javobgarlikni mustahkamlash, qonunchilikni takomillashtirish va institutsional rivojlanishni jadallashtirish orqali O’zbekiston xalqaro savdoning barqaror rivojlanish tamoyillariga mos modelini shakllantirishi mumkin.

Bu yo’lda biz avvalo xalqaro savdo uchun hech qanday to’siq yaratmaslik haqida o’ylashimiz kerak. Agar, mana bu kiritilayotgan yoki ilgari surilayotgan takliflar sababli xalqaro savdo to’xtab qoladigan yoki inqirozga yuz tutadigan bo’lsa, biz tabiatni asrash bo’yicha va xalqaro savdo faoliyatini hamda atrof-muhitni uyq’unlashtirgan holda tashkil etishga erisha olamasligimiz mumkin. Qonunchilik normalari har bir subyekt uchun to’siq emas balki, imkoniyat kaliti sifatida xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar

1. GATT, General Agreement on Tariffs and Trade, 1947.
https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/ail7_e/gatt1994_e.htm
2. GATS, General Agreement on Trade in Services, WTO, 1995.
https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/26-gats.pdf

3. United Nations, Stockholm Declaration, 1972. Havola: <https://docs.un.org/en/A/CONF.48/14/Rev.1>
4. United Nations, Rio Declaration on Environment and Development, 1992. Havola: <https://www.un.org/en/conferences/environment/riol1992>
5. United Nations, Agenda 21, 1992. Havola: https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/Agenda21.pdf?_gl=1*17gjk8h*_ga*MTY5NzczNTQ4Ni4xNzQ3Mjg4MjE5*_ga_TK9BQL5X7Z*_czE3NDg1MTYyNDYkbzYkZzAkdDE3NDg1MTYyNDYkajYwJGwwJGgw
6. UNFCCC, Paris Agreement, 2015. <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>
7. European Commission, Proposal for a Directive on Corporate Sustainability Due Diligence, 2022. [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/IDAN/2022/702560/EXPO_IDA\(2022\)702560_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/IDAN/2022/702560/EXPO_IDA(2022)702560_EN.pdf)
8. European Union, Green Deal Policy Framework, 2020. https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/european-green-deal_en
9. State Council of China, Five-Year Plan on Ecological Civilization, 2021. https://www.fujian.gov.cn/english/news/202108/t20210809_5665713.htm
10. WTO Trade and Environment Division Reports, 2022. https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/wtr22_e.htm
11. UNEP, Green Economy Report, 2011. <https://sustainabledevelopment.un.org/index.php?page=view&type=400&nr=126&menu=35>
12. UNCTAD, Trade and Environment Review, 2013. <https://unctad.org/publication/trade-and-environment-review-2013>
- II. Milliy normativ-huquqiy hujjatlar**
13. O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-107115?ONDATE2=01.01.2024&action=compare>
14. O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘irisida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-32955>.
15. O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘irisida”gi Qonun <https://lex.uz/ru/docs/-18942>